<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJIRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH

Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich

Namangan davlat texnika universiteti,
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
E-mail: bmirzahalikov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat dasturlari bajarilishida davlat-xususiy sherikchilikdan foydalanish imkoniyatlari va muammolari ochib berilgan. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat dasturlari bajarilishidagi muammolar, birinchi navbatda, davlat mablag'larining moliyaviy resurslari yetishmasligi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda davlat va xususiy sektor hamkorligi iqtisodiyotning o'sishi va kambag'allikni qisqartirishni ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmini shakllantirmoqda.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, davlat dasturlari, davlat-xususiy sherikchilik, soliq mexanizmi, tashabbusli budjet, moliyalashtirish manbalari, kambag'allik, tadbirkorlik, kichik biznes, davlat siyosati, iqtisodiy o'sish, moliyaviy siyosat, ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam, ijtimoiy siyosat, kambag'allik chegarasi, inson farovonligi, taraqqiyot strategiyasi.

Abstract. The article reveals the possibilities and problems of using public-private partnerships in the implementation of state programs aimed at reducing poverty. In the implementation of state programs to reduce poverty, the problems are primarily associated with the lack of financial resources of public funds. Today, cooperation between the public and private sectors forms an effective mechanism for attracting investments aimed at ensuring economic growth and reducing poverty.

Keywords: state budget, state programs, public-private partnership, tax mechanism, initiative budget, sources of financing, poverty, entrepreneurship, small business, public policy, economic growth, financial policy, social benefits, financial assistance, social policy, poverty line, human well-being, development strategy.

Аннотация. В статье раскрываются возможности и проблемы использования государственно-частного партнерства при реализации государственных программ по сокращению бедности. В реализации государственных программ по сокращению бедности проблемы связаны, прежде всего, с нехваткой финансовых ресурсов государства. Сегодня сотрудничество государственного и частного секторов формирует эффективный механизм привлечения инвестиций, направленных на обеспечение экономического роста и сокращение бедности.

Ключевые слова: государственный бюджет, государственные программы, государственно-частное партнерство, налоговый механизм, инициативный бюджет, источники финансирования, бедность, предпринимательство, малый бизнес, государственная политика, экономический рост, финансовая политика, социальные льготы, материальная помощь, социальная политика, черта бедности, благосостояние человека, стратегия развития.

KIRISH

O'zbekistonda aholi sonining muntazam o'sib borishi va kambag'allik muammosining mavjudligi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni samarali bajarishda yangi moliyaviy va institutsional mexanizmlarni ishga solishni taqozo etmoqda. Xususan, davlat-xususiy sherikchilik hamda moliyaviy bozor instrumentlaridan foydalanish orqali davlat dasturlarini moliyalashtirish va amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Zamonaviy milliy iqtisodiyotda yangi iqtisodiy munosabatlar asta-sekin shakllanib, mamlakatning jahon hamjamiyatiga tobora chuqur integratsiyalashuvi sharoitida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi tarkibiy o'zgarishlar hamda o'zaro yaqin hamkorlikka ehtiyoj ortib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat–xususiy sherikchilik kabi nisbatan yangi va samarali institutsional tuzilma iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xususiy kapitalni jalb etishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat va xususiy biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikka bo'lgan qiziqishning ortib borishi ko'plab mamlakatlarda davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirish orqali yirik ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni samarali hal etish imkoniyati mavjud ekanligi bilan izohlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat–xususiy sherikchilik mexanizmlaridan foydalanish masalalari ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishlarida davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim omil sifatida qaralmoqda [1]. Global miqyosda suv resurslariga bo'lgan bosimning kuchayishi va suv tanqisligi xavfining ortib borishi kambag'allik muammosining chuqurlashishiga olib kelayotgan omillardan biri hisoblanadi [2]. Ushbu holat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat dasturlarini amalga oshirish jarayoniga xususiy kapital va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini jalb etishni taqozo etadi. Davlat–xususiy sherikchilikning shakllari, modellari va mexanizmlari Mirzaxalikov va Raxmonov tadqiqotlarida keng tahlil qilingan bo'lib, mualliflar ushbu institutni davlat va biznes manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi samarali vosita sifatida baholaydilar [3]. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, Prezident murojaatnomasida aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan [4]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda normativ-huquqiy baza muhim ahamiyat kasb etib, tegishli qonun hujjatlari davlat–xususiy sherikchilik mexanizmlarini keng qo'llash uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda [5]. Ilmiy adabiyotlarda "yashil" iqtisodiyot va barqaror rivojlanish sharoitida ham davlat–xususiy sherikchilik mexanizmlaridan foydalanish masalalari dolzarb ekani ta'kidlanadi [6]. Xususan, xususiy sektor ishtirokida ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Mirzaxalikovning keyingi tadqiqotlarida davlat–xususiy sherikchilik mexanizmlarining kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini faollashtirishdagi o'rni asoslab berilgan bo'lib, ushbu mexanizmlar investitsiyalarni jalb etish va ish o'rinlari yaratish orqali kambag'allikni qisqartirishga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan [7]. Shuningdek, muallif tomonidan kambag'allik muammosining nazariy asoslari hamda unga qarshi kurashish masalalari alohida ilmiy izlanish obyekti sifatida tahlil qilingan [8; 9; 10]. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat dasturlarini samarali amalga oshirishda davlat–xususiy sherikchilik mexanizmlaridan foydalanish dolzarb va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi hamda u iqtisodiy o'sish va inson farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada analiz, sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, ekonometrik modellar, qiyoslash, korrelyatsiya va regressiya hamda iqtisodiy-moliyaviy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikni kamaytirishda aholi turmush darajasini oshirish, qulay yashash sharoitlarini yaratish hamda oziq-ovqat mahsulotlarini qulay narxlarda yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, ekologik muammolarga yechim topish zarurligi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib O'zbekistonda 7 milliard kub metr suv yetishmasligi kuzatiladi [1]. Germaniyaning Statista tahliliy-statistik kompaniyasi prognozlariga ko'ra, 2040-yilga borib dunyoning 44 ta mamlakatida suv tanqisligi ekstremal darajada yuqori bo'ladi [2], ushbu ro'yxatda Markaziy Osiyo davlatlari ham mavjud.

Kambag'allik muammosini hal etishda moliyaviy resurslar tanqisligi, shuningdek suv yetishmovchiligi bilan bog'liq holda qishloq xo'jaligi sohalarida muammoli holatlarning yuzaga kelayotgani natijasida go'sht, kartoshka, yog' va shakar mahsulotlari importining muntazam oshib borishi, energetik kollapslarga yo'l qo'ymaslik zarurati mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini tobora jadallashtirishni hamda qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish yo'llarini izlab topishni talab qilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyot tabiiy resurslarni haddan tashqari iste’mol qilishga asoslangan an’anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda qisqa muddatda yalpi ichki mahsulot, aholi jon boshiga bandlik va daromadlarning kamida shu darajada yoki undan yuqori sur’atlarda o’sishini ta’minlashi mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda esa tabiiy muhit holatini yaxshilash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, kambag’allikni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik loyihalarni amalga oshirish bilan bog’liq muammolar, birinchi navbatda, davlat mablag’lari va xususiy biznes moliyaviy resurslarining yetishmasligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda davlat va xususiy sektor hamkorligi aholini ijtimoiy muhofaza qilish, kambag’allikni kamaytirish va iqtisodiyotning “yashil” o’sishini ta’minlashga yo’naltirilgan investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmini shakllantirmoqda.

Shuningdek, iqtisodiyotning “yashil” o’sishiga yo’naltirilgan davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini amalga oshirishda uchta asosiy yo’nalish eng katta ulushga ega bo’lib bormoqda: aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash va kanalizatsiya tizimlari, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hamda qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan energetika. Jahon banki tuzilmalari tomonidan ushbu yo’nalishlarda butun dunyo bo’ylab investitsion loyihalarga moliyaviy yordam ajratilmoqda.

Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi mintaqalarni dinamik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini hal etishda davlat va biznes manfaatlari kesishgan nuqtada vujudga kelgan bo’lib, budget mablag’laridan samarali foydalanish hamda budgetdan tashqari fondlar orqali investitsiyalarni jalb etish hisobiga davlat sektori xizmatlari sifati va hajmini oshirish samaradorligini kuchaytirmoqda. Bugungi kunda dunyoda davlat infratuzilmasini rivojlantirish va ijtimoiy ahamiyatga molik xizmatlar ko’rsatishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini joriy etgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda. Davlat-xususiy sherikchilik moliyaviy resurslaridan foydalanish davlat dasturlarida belgilangan loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa o’z navbatida yangi ish o’rinlarini yaratish orqali aholi kambag’alligining kamayishiga olib keladi.

Davlat o’z funksiyalarini amalga oshirar ekan, resurslardan oqilona foydalanish va aholining hayot darajasi sifatini oshirishdan manfaatdor hisoblanadi. Biroq davlat sektori ham, xususiy biznes ham ko’pincha bunday loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo’lmaydi. Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi asosida davlat va xususiy tomonlarning resurslarini birlashtirish orqali tomonlar teng manfaatdor sheriklar sifatida harakat qiladi va bu doirada loyihalarning samarali amalga oshirilishini ta’minlash imkoniyati yuzaga keladi.

Mamlakat iqtisodiyotida davlat-xususiy sherikchilikning ahamiyati shundaki, u ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish, mintaqalarda katta miqdordagi resurslarni jamlash hamda davlat va xususiy sheriklar o’rtasida xatarlarni adolatli taqsimlash imkonini beradi. Davlat hamkori, ya’ni uning mintaqaviy organlari tomonidan vakillik qilinadigan davlat subyekti, davlat-xususiy sherikchilik doirasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun yakka tartibdagi tadbirkorlarni jalb etishdan manfaatdor bo’ladi.

Jahon banki hisob-kitoblariga ko’ra, infratuzilmaga yo’naltirilgan moliyaviy qo’yilmalarning 10 foizga oshishi iqtisodiy o’sishning 1 foizga ortishini ta’minlaydi. Shu bois davlat-xususiy sherikchilik institutining rivojlanishi respublikani uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etiladi [3].

Bugungi kunda dunyoda davlat infratuzilmasini rivojlantirish va ijtimoiy ahamiyatga molik xizmatlar ko’rsatish jarayonlarida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari va vositalarini joriy etgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda. Davlat-xususiy sherikchilik shartnomasi davlat xizmati va xususiy sherik o’rtasida tuziladigan uzoq muddatli shartnoma bo’lib, u xususiy obyektning boshqarish bo’yicha javobgarlikni o’z zimmasiga oladi hamda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xavflarni davlat bilan baham ko’radi.

Davlat-xususiy sherikchilik investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmi sifatida iqtisodiy o’sishni ta’minlashga qaratilgan moliyaviy munosabatlar tizimini ifodalaydi. Ushbu mexanizm xususiy sektor resurslari hamda banklar, jumladan xalqaro moliya institutlarining kredit mablag’larini kambag’allikni kamaytirish va aholining farovon hayot kechirishi bilan bog’liq loyihalarga yo’naltirish imkonini beradi. Mamlakatimizda so’nggi yillarda “yashil” iqtisodiyot rivojiga hissa qo’shuvchi infratuzilmaviy davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyalashtirish bo’yicha muayyan tajriba shakllanmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan elektr energiyasi, suv ta’minoti va kanalizatsiya, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalardagi ekologik loyihalarga ustuvor moliyaviy yordam ajratilmoqda.

Yashil iqtisodiyot resurslardan tejamkor foydalanish imkonini yaratish bilan birga aholi sonining o’sishi fonida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni hal etishga hamda turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada iqtisodiyotning muhim bo’g’ini hisoblangan energetika tizimini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish global miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-57-son qarori ushbu yo’nalishda muhim amaliy qadam bo’ldi [4]. Milliy iqtisodiyotimizda energiya sarfi boshqa davlatlarga nisbatan ikki baravar yuqori bo’lib turgan sharoitda yashil energiyaga o’tish zarurati



yanada yaqqol namoyon bo'lmogda. Qayta tiklanadigan energiyaga jadallik bilan o'tish iqtisodiyot va jamiyat uchun ikki tomonlama samara beradi. Xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish, iste'molchilarni muqobil energiyaga o'tkazish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali 2023-yilda qo'shimcha 5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va 4,8 milliard kub metr tabiiy gazni tejash imkoniyati yaratiladi.

Yashil energiyaga o'tishni moliyalashtirish maqsadlarida jami 15,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni yo'naltirish rejalashtirilgan bo'lib, davlat-xususiy sherikchilik doirasida xususiy investorlar mablag'lari umumiy moliyalashtirish hajmining 87 foizini tashkil etishi kutilmogda. Shuningdek, tijorat banklarining 1,1 milliard dollarlik kredit mablag'lari, korxonalarning 610 million dollarlik o'z mablag'lari, xorijiy moliyaviy tashkilotlarning 150 million dollarlik mablag'lari hamda davlat budjetidan ajratiladigan 100 million dollarlik mablag'lar yashil energetika loyihalariga yo'naltirilishi belgilangan [5]. Alohida ta'kidlash joizki, davlat budjeti mablag'lari asosan budjet tashkilotlarining yashil energiyaga o'tishini ta'minlashga qaratiladi.

2023-yilda davlat-xususiy sherikchilik asosida yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha 27 ta loyiha amalga oshirilishi kutilmogda. Shuningdek, ushbu elektr stansiyalarini elektr uzatish tarmoqlariga ulash bo'yicha manzilli loyihalar ro'yxati ham tasdiqlangan [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, davlat-xususiy sherikchilikni yanada rivojlantirish uchun uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish zarur. Bizningcha, davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini amalga oshirishda investorlar va kreditorlarning huquqlarini munosib himoya qilish mexanizmlarini ta'minlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, xususiy investorlar foydasiga sud qarorlarini qabul qilish amaliyotini kengaytirish, investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mavjud mexanizmlardan ichki davlat-xususiy sherikchilik loyihalari sohasida to'laqonli va samarali foydalanish talab etiladi. Bu loyihalarni baholash tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi, natijada investitsiya muhitini yanada yaxshilash hamda xususiy investorlarning huquqiy himoyaga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda davlat-xususiy sherikchilik huquqiy bazasining asosiy obyektlari O'zbekiston Respublikasining "Konsessiyalar to'g'risida"gi qonuni hamda "Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risida"gi qonuni hisoblanadi. Ushbu ikki qonun davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini huquqiy tartibga solishning asosini tashkil etadi. Ularning samaradorligini oshirish uchun, bizningcha, quyidagi kamchiliklarga e'tibor qaratish lozim [7].

Birinchidan, xususiy sherikning mulkchilik huquqlarining yo'qligi muhim muammo hisoblanadi. Konsessiya shartnomasiga muvofiq, xususiy hamkor konsessiya obyektini o'z mablag'lari hisobidan yaratadi yoki qayta quradi, biroq obyektga egalik qilish huquqi davlat hamkorga, ya'ni davlatga tegishli bo'ladi. Shu sababli, xususiy biznes subyekti o'z mablag'i evaziga shakllantirilgan obyektini yaratishda katta miqdorda sarmoya kiritgan bo'lsa-da, unga egalik qila olmaydi. Bu holat davlat organlari tomonidan vakolatlarni suiiste'mol qilish hamda biznesga bosim o'tkazish xavfini yuzaga keltiradi. Yetarli ma'muriy resurslarga ega bo'lmagan konsessiyalar ayniqsa ushbu xavfga ko'proq duch keladi.

Ikkinchidan, konsessiya obyektidan ta'minot, masalan garov sifatida foydalanish imkoniyati mavjud emas. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, konsessiya shartnomasi obyektini garovga qo'yishga yo'l qo'yilmaydi, bu esa moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Uchinchidan, imtiyoz to'lovining mavjudligi muammoli jihatlardan biri hisoblanadi. Konsessiya to'g'risidagi qonunga muvofiq, konsessiya shartnomasi obyektining faoliyati davomida davlatga xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun yig'im undiriladi. Konsessiya to'lovi konsessiya mexanizmidagi eng bahsli jihatlardan biri bo'lib, xususiy biznes ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni o'z zimmasiga olgan holda hal etayotgan bir paytda, aksincha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kuchaytirilishi lozim. Aks holda, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar qiymatining oshishiga olib keladi va bu, ayniqsa, kam ta'minlangan qatlam uchun ijtimoiy muammolarni yanada chuqurlashtiradi.

"Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risida"gi qonun konsessiya to'g'risidagi qonundan farqli ravishda faqat bitta davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini, jumladan xorijiy investor ishtirokidagi loyihalarni tartibga solish bilan cheklanmaydi, balki umumiy xarakterga ega bo'lgan huquqiy asoslarni belgilaydi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlaridan foydalanish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: energiya islohotlarini jadallashtirish hamda energiyadan tejamkor foydalanishga rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish; energetika sohasidagi davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida "yashil energiya"ga yo'naltirilgan bank moliya mahsulotlarini joriy etish orqali xususiy investorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularning loyihalarga jalb etilish ko'lamini kengaytirish; suv resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi dastaklardan samarali foydalanish; yashil moliyalashtirish instrumentlarini faol joriy etish uchun an'anaviy moliya bozorini sog'lom raqobat asosida rivojlantirish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Elmiraev, S., & Shavkatov, N. (2023). Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlaridan foydalanish masalalari. *Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy*, 7(167).
2. Lex.uz. (2023). O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjati. <https://lex.uz/uz/docs/6385716>
3. MIIT. (2023). Suv resurslarini boshqarish va qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish masalalari. <https://miit.uz/oz/news/suv-resurslarini-boshqarish-va-qishloq-xo'jaligini-barqaror-rivojlantirish-ikkinchi-toshkent-xalqaro-investitsiya-forumining-mavzularidan-biriga-aylandi>
4. Mirzakhaliqov, B. B. (2024). Kambag'allik muammosi tadqiq etilishining nazariy asoslari. In *Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va zamonaviy loyihalarni amalga oshirishda iqtisodiyotning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami* (Vol. 2, p. 94). Namangan muhandislik-texnologiya instituti.
5. Mirzakhaliqov, B. B. (2024). Kambag'allik muammosi va unga qarshi kurashish masalalari. In *Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va zamonaviy loyihalarni amalga oshirishda iqtisodiyotning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami* (Vol. 2, p. 230). Namangan muhandislik-texnologiya instituti.
6. Mirzakhaliqov, B. B. (2024). Some definitions about the mechanism of public-private partnership and its role in strengthening the activities of business entities and small businesses. *Scientific and Technical Journal of NamIET*, 9(3), 316–320. <https://www.niet.uz>
7. Mirzakhaliqov, B. B. (2025). Kambag'allik muammosi tadqiq etilishining nazariy asoslari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2, 567–571.
8. Mirzakhaliqov, B. B., & Rakhmonov, D. A. (2021). Formy, modeli i mekhanizmy gosudarstvenno-chastnogo partnerstva. In *Aktualnye voprosy razvitiya sovremennogo obshchestva, ekonomiki i professionalnogo obrazovaniya: Materialy XVIII mezhdunarodnoy molodezhnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii* (pp. 48–51). Russian State Vocational Pedagogical University.
9. Review.uz. (2023). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi (to'liq matn). <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
10. Statista. (2022). Global water stress projections. <https://www.statista.com/chart/26140/water-stress-projections/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100